

# O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti "Radiopreparat" davlat muassasasiga press-tur tashkil etildi

2025-yil 17-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tashabbusi bilan ommaviy axborot vositalari vakillari uchun respublika ilmiy-texnik salohiyatini oshirishga qaratilgan amaliy press-tur tashkil etildi. Tadbir O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti tarkibida faoliyat yurituvchi "Radiopreparat" davlat muassasasida bo'lib o'tdi.



Press-turdan ko'zlangan asosiy maqsad yadro tibbiyoti va radiofarmatsevtika sohasida joriy etilayotgan zamonaviy texnologiyalar, radioizotop va radiofarmatsevtik mahsulotlarni ishlab chiqarishning to'liq ilmiy-ishlab chiqarish sikli, shuningdek, ilm-fan va amaliyot o'rtasidagi hamkorlik natijalarini ommaviy axborot vositalari vakillariga keng yoritib berishdan iborat bo'ldi.

Tadbir ishtirokchilari muassasada radioaktiv izotoplar, radiofarmatsevtik preparatlar, diagnostika uchun mo'ljallangan faol va faol bo'lmagan to'plamlar hamda immunoferment test-tizimlarni ishlab chiqarish jarayonlari bilan tanishdilar. Shuningdek, mahsulot sifati, radiatsiya xavfsizligi va ishlab chiqarish jarayonlarini xalqaro GMP, ISO hamda IAEA standartlari asosida tashkil etish amaliyoti taqdim etildi.

Press-tur davomida "Radiopreparat" davlat muassasasining milliy yadro tibbiyoti infratuzilmasida tutgan o'рни, sog'liqni saqlash tizimini mahalliy radiofarmatsevtik mahsulotlar bilan ta'minlashdagi ahamiyati, shuningdek, eksport yo'nalishidagi faoliyati haqida atroflicha ma'lumot berildi.





Korxona mamlakatimizning radioizotop va radiofarmatsevtika mahsulotlariga bo'lgan ichki ehtiyojini to'liq ta'minlamoqda, shuningdek, eksport yo'nalishini faol rivojlantirib, O'zbekistonning xalqaro bozordagi mavqeini mustahkamlamoqda.

Ayni paytda muassasa Rossiya, Xitoy, Turkiya, Yaponiya, Germaniya, Vengriya va boshqa Yevropa va Osiyo mamlakatlaridagi xorijiy hamkorlar bilan hamkorlik qilmoqda. Radionuklid substansiyalari va tayyor radiofarmatsevtik preparatlarni yetakchi ilmiy markazlar, tibbiyot muassasalari va farmatsevtika kompaniyalariga to'g'ridan-to'g'ri yetkazib berish yo'lga qo'yildi.

Birgina 2025-yilda 30 dan ortiq eksport shartnomalari amalga oshirildi, bu muassasa mahsulotlariga bo'lgan ishonchning yuqori darajasi va mahalliy radiofarmatsevtika texnologiyalarining raqobatbardoshligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, tadbir doirasida mutaxassislar va jurnalistlar o'rtasida ochiq muloqot o'tkazilib, yadro tibbiyoti sohasida ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish, kadrlar tayyorlash va xalqaro hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Mazkur amaliy press-tur O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimida ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish, yuqori texnologiyali tibbiy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda mamlakatning ilmiy va ishlab chiqarish salohiyatini oshirish yo'lida muhim ahamiyat kasb etadi.